

IMPROVING THE PEDAGOGICAL BASIS OF PREPARING BOYS FOR INDEPENDENT FAMILY LIFE

Islamova Fotima Shamsiddinovna

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Pedagogika kafedrası
katta o'qituvchisi

Abstract

This article examines the issues of improving the pedagogical foundations for preparing boys for independent family life. The study analyzes the scientific and theoretical bases of family life preparation, identifies pedagogical conditions, and develops a model aimed at increasing the effectiveness of this process. An experimental study was conducted among 10th–11th grade male students of secondary schools, and the results were evaluated using mathematical and statistical methods. The findings demonstrate that the improved pedagogical approach effectively contributes to the development of family responsibility, conscious attitudes toward marriage, and social competencies among boys. The results of the study have practical significance for organizing educational activities within schools, families, and local communities.

Keywords: Boys, independent family life, family education, pedagogical model, social competence, educational process.

Introduction

Jahonda oila institutidagi transformatsion o'zgarishlar, oilaviy hayotning an'anaviy uslubini o'zgartirish tendensiyasi, oilaning o'ziga xos xususiyatlarining kuchayishi tarbiya nazariyasi va amaliyotida oilaviy tarbiyani ijtimoiy–pedagogik hodisa sifatida konseptual tushunish zarurligini kuchaytirmoqda. Axborotlashgan jamiyatda oilaning ijtimoiy mavqeini yaxshilashga bo'lgan ehtiyoji ta'lim tizimida o'g'il bolalarning ongli oilaviy hayotga tayyorlash, uning pedagogik potensialini aniqlash va real amaliyotda amalga oshirish jarayonini ilmiy–uslubiy ta'minlashni taqozo etmoqda.

Dunyoning nufuzli tadqiqot muassasalari yoshlarni ta'lim jarayonida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash hamda muvaffaqiyatli yashash kompetensiyasini shakllantirish bilan bog'liq tarbiyaviy ta'lim muhitini yaratish borasida ahamiyatli tajribalarni ilgari surmoqda. Bular qatoriga oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy xususiyatlari ham kiradi. Mazkur tadqiqotlarda oilaviy ta'limga oid empirik ma'lumotlarning jadal ko'payishi uni yaxlit ko'p qirrali tarzda taqdim etishga yordam beradigan sifat jihatidan yangi metodologiyani qo'llash, ta'lim tizimida o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy omillarning o'zaro aloqasini sinergetik yondashuv asosida tadqiq etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ta'lim siyosatining mazmun-mohiyatida "Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish"¹ muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimiz maktablarida "mavjud fanlar va darsdan tashqari mashg'ulotlarida maxsus ijtimoiy-emotsional o'quv soatlari (Social Emotional Learning – SEL) yo'lga qo'yilishi o'quvchi-yoshlarning o'zini o'zi boshqarish, murakkab hayotiy vaziyatlarni yengib o'tish ko'nikmalarini shakllantirish"² ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu borada, o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari kengaymoqda. So'nggi yillarda globallashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar hamda qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar oila institutining barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, nikohlarning kamayishi va ajralishlar sonining ortishi yoshlarni, ayniqsa o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalasini dolzarb pedagogik muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasida oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning mustahkamligi bevosita yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liqdir.³

Davlat siyosati darajasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"⁴da sog'lom oila, sog'lom avlod konsepsiyasi ustuvor yo'nalish

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi "Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-196-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6505600>

3 O'zbekiston Respublikasi. (2016). *Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi Qonun*. Toshkent.

4 Mirziyoyev, Sh. M. (2022). *2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida* (PF-60-son Farmon). Toshkent.

sifatida belgilangan. Biroq mavjud pedagogik amaliyotda o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni ko'pincha tizimsiz, fragmentar va nazariy asoslanmagan holda olib borilayotgani kuzatiladi.

Oilada o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash tasodifiy faoliyat bo'lmay, balki ilmiy asosga va mustahkam amaliyotga tayanadi. Bu muammoga doir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha birmuncha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo o'spirin yoshidagi o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash muammosi nazardan chetda qolgan. Olib borilgan tadqiqot ishlari, dastur va o'quv qo'llanmalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning o'ziga xos yo'llari, metod va usullari borasida ma'lum tajribalar o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda birmuncha yordam beradi. Chunki o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash uzluksiz bo'lib, uni izchil davom ettirish va ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish zamon talabidir.

O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash o'zbek millatiga xos etnopedagogik na etnopsixologik hodisa va an'ana bo'lib, o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda ham muhim o'rinni egallaydi. O'zbek xalqining turmush tarzi tarixi oila mustahkamligi, uning har tomonlama ravnaqi masalasining yuqori pog'onada bo'lganligidan darak beradi. O'zbek milliy an'analar, milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda, kelajagi buyuk davlatni barpo etishda, bu boradagi zaruriy ma'naviy-axloqiy tarbiyani to'g'ri yo'naltirish va yuksaltirishda, shuningdek, o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi[25, 36-b]. Mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni ta'lim bilan tarbiyani qo'shib olib borish faoliyatini taqozo etadi. Mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning mazmunini belgilovchi bir necha tamoyillar bo'lib, bu tamoyillar ijtimoiy-pedagogik xarakterga ega hisoblanib, ular asosan o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini takomillashtirish orqali shakllanadi.

Bu borada uning quyidagi tamoyillari:



Shu kabilar mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning mazmunini belgilaydi. Bu tamoyillar ijtimoiy–pedagogik xarakterga ega bo‘lib, ular asosan o‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini takomillashtirish orqali shakllanadi.

A.Fitrat “mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda oila qurishning maqsad va vazifalari, uning moddiy–ma’naviy va huquqiy asoslari, er va xotin hamda uning turmush tarzi, ayol va erkakning oiladagi o‘rni, burchi”[122, 62–b], deb ta’kidlaydi “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oilaviy hayotga tayyorlash masalasi ko‘proq umumiy yoki psixologik nuqtayi nazardan yoritilgan bo‘lib, aynan o‘g‘il bolalar kesimida pedagogik asoslarni takomillashtirishga bag‘ishlangan kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Ushbu maqolaning maqsadi o‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslash hamda tajriba-sinov natijalari asosida ularning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Methods (Tadqiqot metodlari)

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslandi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlarning uyg'un majmuasidan foydalanildi.

Nazariy metodlar doirasida falsafiy, pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlar tahlil qilindi, mavjud yondashuvlar umumlashtirildi va pedagogik model ishlab chiqildi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa so'rovlari, tajriba-sinov ishlari hamda matematik-statistik tahlil qo'llanildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Surxondaryo viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 350 nafar 10-11-sinf o'g'il bolalari ishtirok etdi. Ulardan 180 nafari tajriba guruhiga, 170 nafari nazorat guruhiga ajratildi. Tajriba jarayonida muallif tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik model asosida maxsus mashg'ulotlar, seminar-treninglar, davra suhbatlari va integrativ tarbiyaviy faoliyat tashkil etildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy tarbiyaviy ishlar davom ettirildi. Olingan natijalar Styudent mezoni, o'rtacha qiymatlar, dispersiya va variatsiya koeffitsiyentlari yordamida statistik jihatdan tahlil qilindi.

Results (Natijalar)

O'zbekistonning iqtisodiy ijtimoiy, madaniy, huquqiy va siyosiy mustaqilligini ta'minlovchi yaxlit mafkura ishlab chiqish harakati avj olib borayotgan hozirgi sharoit o'tmish ajdodlarimiz yaratgan moddiy va ma'naviy meros boyliklarini, shu jumladan milliy an'analar merosini chuqur va izchil o'rganish muammosini kun tartibiga qo'ydi. Chunki hozirgi taraqqiyot jarayoni ma'naviy, axloqiy turmushni g'oyaviy e'tiqodni va yuksak insoniy fazilatlarni yanada yuksaltirish, takomillashtirish va mustahkamlashni taqozo etmoqda. Bu muhim vazifani amalga oshirishda, birinchi navbatda asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analar, xalq tomonidan yaratilgan, og'zaki ijodida, an'analarida, urf-odatlarida, marosimlarida ifodalangan pedagogik g'oyalar, tarixiy tarbiya borasidagi qarashlar va tajribalarni o'rganish, to'plash va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish[38; 77-b] muhim ahamiyat kasb etadi(2.3.1-rasm).

2.3.1–jadval O‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash usullari

Tavsifli ko‘rsatkichlar	Tekshirish turlari. Boshlang‘ich darajalari
Tekshirish mazmuni	O‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning rivojlanganlik darajasi, pedagogik–psixologik xususiyatlari
Tekshirish maqsadi	O‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning rivojlanganlik darajasini DTS bilan qiyoslash
Tekshirish uslublarining mazmuni	Nazorat topshiriqlari, savolnomalar, amaliy ishlar, ish ob‘ektlari
Nazoratning qaytarilishi	Bir marotaba, o‘quv yili o‘rtasida
O‘quvchilar soni	Kamida 35–40 ta
Nazorat turi	Laboratoriya sharoiti, sinf, tabiiy sharoit

Pedagogik tajriba–sinov ishlari qaysi ta’lim muassasi, qaysi guruhlarda tajriba sinovning qaysi turi va kim tomonidan o‘tkazilishi aniq belgilab olindi. O‘qishdan tashqari vaqtda o‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha o‘quv mazmuni va maqsadlarini chuqur va batafsil, mashg‘ulot imkoniyatlari va xususiyatlaridan keng foydalanib o‘rgatishga e’tibor berildi. Xususan, milliy tarbiya yo‘nalishlari, mezonlar va baholash yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quvchilarga zarur ma’lumot, tavsiya, maslahat, eslatmalar berish, talablar bilan tanishtirish kabilar alohida ahamiyat kasb etdi. Bunda nazariy–amaliy bilimlar bilan ta’minlashga ajratiladigan vaqt qat’iy chegaralanmay, muayyan ijtimoiy oilalar oldida so‘zga chiqish oila etikasi bo‘yicha maqsadli mashq va treninglar o‘tkazish, o‘quvchilarning mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga oid nazariy–amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini izchil oshirib borish; ularga oilaparvarlik tajribalarini faol o‘zlashtirishda ko‘maklashish nazarda tutildi. Biz bu haqda uchinchi bobda batafsil to‘xtalamiz.

Nazariy va empirik tadqiqotlar natijalari o‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning amaliy pedagogik modelini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning pedagogik shartlarini asoslash zarurligini aniqladi.

Tajriba–sinov ishlari natijalari o‘g‘il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda takomillashtirilgan pedagogik modelning ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Baholash mezonlari sifatida an’anaviylik, shaxsiy–qiziqish, ehtiyojli–faoliyatli va intellektual–ijodiy ko‘rsatkichlar tanlandi.

Tajriba boshida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida sezilarli farq aniqlanmadi. Biroq tajribadan so‘ng tajriba guruhida yuqori darajaga ega bo‘lgan o‘quvchilar ulushi barcha mezonlar bo‘yicha oshgani kuzatildi. Xususan, an’anaviylik

mezoni bo'yicha yuqori daraja ko'rsatkichi tajriba guruhida sezilarli o'sishga ega bo'ldi.

Matematik-statistik tahlil natijalari tajriba guruhidagi o'rtacha ko'rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligini tasdiqladi. Variatsiya koeffitsiyentlarining pastligi tajriba natijalarining ishonchliligini ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'g'il bolalarda oilaviy mas'uliyat, nikohga ongli munosabat, oila boshqaruvi bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikmalar shakllandi. Ayniqsa, ijtimoiy hamkorlikka asoslangan tarbiyaviy faoliyat samaradorligi yuqori bo'ldi.

Discussion (Muhokama)

Olingan natijalar mavjud ilmiy qarashlar bilan uyg'un holda, o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etishini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, faqat axborot berish bilan cheklangan tarbiya yetarli emas; balki shaxsiy tajriba, refleksiya va faoliyatga asoslangan pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega.

Sharq mutafakkirlari merosida ilgari surilgan oila, mas'uliyat va erkaklik burchi haqidagi g'oyalar zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyalashganda yuqori samaradorlik beradi. Bu esa milliy qadriyatlarga tayangan holda innovatsion tarbiyaviy modellarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Muhokama natijasida aniqlanishicha, o'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda maktab-oila-mahalla hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Ushbu integratsiya ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi va yoshlarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi⁵.

Kelgusida mazkur tadqiqot natijalari asosida fan dasturlari, metodik qo'llanmalar va o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki oila mustahkamligi nafaqat shaxsiy baxt, balki jamiyat barqarorligining ham asosiy kafolatidir.

Xulosa

Ilmiy haqiqat shuki, o'g'il bolani oilaga tayyorlash - bu "bir kunlik seminar" emas, balki yillar davom etadigan pedagogik jarayon. Agar bu jarayon ilmiy

⁵ Fitrat, A. (1993). *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. Toshkent: Fan.

asoslanmasa, natijalar ham tasodifiy bo‘ladi. Tadqiqot esa shuni ko‘rsatdiki, tizim bor joyda barqaror oila, barqaror oila bor joyda esa kelajak bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida* (PF–60-son Farmon). Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2020). *Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PQ–820-son). Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi. (2016). *Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi Qonun*. Toshkent.
4. Fitrat, A. (1993). *Oila yoki oila boshqarish tartiblari*. Toshkent: Fan.
5. Inomova, M. (2016). *Oilaviy tarbiya nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: O‘qituvchi.
6. Musurmonova, O. (2018). O‘quvchi-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik asoslari. *Pedagogik ta’lim*, 4, 45–49.
7. Munavvarov, A. Q. (2015). *Oila pedagogikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Karimova, V. M. (2017). Oila muhitida shaxs kamolotining psixologik omillari. *Psixologiya*, 2, 23–27.
9. Davletshin, M. G. (2014). *Yoshlar psixologiyasi*. Toshkent: Universitet.
10. Volkov, G. N. (2003). *Etnopedagogika*. Moscow: Akademiya.
11. Schneider, L. B. (2010). *Family psychology*. New York: Springer.
12. Eidemiller, E. G., & Yustitskis, V. (2015). *Psychology and psychotherapy of the family*. Saint Petersburg: Piter.